



O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING SINTAKTIK USULDA YASALISHI

Usanova Qademay Muratbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Turkiy tillar fakulteti o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili yo'nalishi
1-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8063409>

ARTICLE INFO

Received: 14th June 2023

Accepted: 20th June 2023

Online: 21th June 2023

KEY WORDS

Morfologik, sintaktik,
abbrevatsiya, leksik, semantik,
qo'shma ot, juft ot, grammatik,
ma'no.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida otlarning sintaktik usulda yasalishi, ularning qiyosi, o'xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.

O'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ot predmet ma'nosini bildiradi. Har 3 tilda ham otning ma'nosi turli-tuman bo'lib, u jonli predmetlarni (*it-sobaka-iyt, mushuk-koшка-pishiq*) (*bola-peбёнок-bala, qush-nмуца-qus*), narsa, predmet va hodisalarni (*sut-молоко-su't*), (*yomg'ir-dождь-jawin*), (*daftar-memрадъ-da'pter, kitob-книга-kitap*), (*majlis-собрание-jiynalis*) ataydi.

Hozirgi o'zbek tilida ot so'z turkumi lug'at tarkibida mavjud bo'lgan so'zlarning miqdorini tashkil etadi. Chunki ot so'z turkumi boshqa so'z turkumlariga nisbatan yangi so'zlar hisobiga tez boyib boradigan turkumdir. O'zbek tilida ot morfologik, sintaktik va abbrevatsiya usullari bilan yasaladi. Rus tilida ot morfologik va sintaktik usullari bilan yasaladi. Qoraqalpoq tilida esa ot morfologik va sintaksislik usullari orqali so'z yasaladi. Quyida biz har bir tilda otning sintaktik usulida yasalishini ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida sintaktik usul bilan so'z yasashda ikki va undan ortiq so'z shakllari biron qolipda birikib, bir predmetni anglatadigan yangi ot yasaydi. Sintaktik usulda qo'shma va juft otlar yasaladi. Qo'shma ot – ikki va undan ortiq so'zning birikishidan hosil bo'lib, bir predmetni anglatadigan yangi ot. Qo'shma ot tarkibidagi so'zlar dastlab ma'no va grammatik jihatdan tobelanish yo'li bilan tuzilgan so'z birikmasi bo'lib, keyinchalik shu sintaktik munosabatning yo'qolishi natijasida bir tushunchani, yangi bir predmetni ifoda etadi¹. Masalan: *ko'zoynak, o'rinbosar, belbog', gulojixo'roz* kabi.

O'zbek tilida rus, tojik tillaridan o'zlashgan *paravoz, aeoport, aeroplan, dushanba, chorshanba* kabi otlar kelib chiqishiga ko'ra qo'shma ot bo'lsada, o'zbek tilida sodda ot sifatida qaraladi. Juft ot bir xil grammatik shaklda kelgan ikki so'zning grammatik jihatdan teng bog'lanishidan tuzilgan jamlovchi, bir umumiy ma'noni anglatadigan yangi ot sanaladi. Bunday juft otlarning qismlari 2 xil bo'ladi: 1- bog'lovchilarsiz: ota-ona, gul-lola. 2-bog'lovchi

¹ Hamroyev M. va boshqalar. Ona tili. – Toshkent, 2007. - B. 97.



vazifasidagi **-u -yu** yuklamalari yordamida: ota-yu ona, gul-u lola, tog'-u tosh kabi. Juft otlar 3 xil usul orqali yasaladi. 1. Juft otning har ikkala qismi mustaqil ma'noli so'zlarda tuziladi: yor-birodar, to'y-tamosha kabi. 2. Juft otning bir qismigina mustaqil ma'noga ega bo'ladi: *kiyim-kechak, bozor-o'char* kabi. 3. Juft otning har ikkala qismi mustaqil ma'noga ega bo'lmagan holda: *g'ala-g'ovur, dali-g'ali* kabi. Juft otlar takror holda kelishi mumkin lekin bunday ot yasama ot sanalmaydi: *choy-poy, ish-pish* kabi. Bunday otlar modal ma'no ifodalaydi².

Rus tilida qo'shma so'z odatda ikkita negizni **-o-** yoki **-e-** harflaridan biri vsoitasida bir-biriga qo'shib hosil qilinadi³: *лес-о-вод, вод-о-провод, хлопок-о-вод, край-е-вед, земл-е-мер, нул-е-мём* kabi.

Qoraqalpoq tilida qaysidir so'z turkumining bir so'z ma'nosiga o'tishi **leksika-sintaksislik usuli** yoki **leksikalizatsiya** deb yuritiladi. Hozirgi qoraqalpoq tilida bu usul juda unumli usul hisoblanadi. Bu usulda yasalgan so'zlar tilni boyitishda katta ahamiyatga ega. Bu usul bilan yasalgan so'zlar dastlab xalqning yashash sharoitiga moslashadi, hech qanday o'zgarishsiz ma'no anglatadi, vaqtning o'tishi bilan bu so'zlar qo'llanishiga qarab bir ma'noni anglatadi, tilning rivojlanishi bilan bu so'zlar o'zi qo'llanadigan so'zlar bilan bir butun ma'noni anglatib keladi. Bu usul bilan yasalgan so'zlar oldingi ma'nolarini yo'qotadi, fonetik va grammatik o'zgarishlarga uchraydi va so'z formasidan ham ayrilishi mumkin: *qasharman, tu'yebasti* kabi. Tildagi ba'zi so'zlar dastlab so'z turkumlari tarkibida kelib, hech qanday o'zgarishsiz belgili bir ma'no anglatadi, ya'ni bir tushunchani bildiradi. Vaqtning o'tishi bilan bu so'zlar butun bir so'z holiga kelib, bir ma'noni anglatadi⁴: *ta'n'ir bergen – Ta'n'irbergen, ul bolsin – Ulbosin, qiz ketken – Qizketken* kabi.

Leksika-sintaksislik usuli bilan yasalgan so'zlarni qoraqalpoq tilining toponimika, onomastika bo'limlarida ham uchratish mumkin. Masalan: *Abatjarmis, Qattig'ar, Qizketken, Qiyatjarg'an, Barsakelmes, Qoyqirilg'anqala, Eshekketken, Taylaqjegen, Tu'rkemqirilg'an, Aybergen, Aybosin, Aytuwg'an, Aytuwg'an, Ulbolg'an, Ultuwg'an, Allabergen, Amangeldi Ayapbergen* kabi so'zlar ko'p uchrashadi. Otlarning sintaksislik usuli orqali qospa, sostavli, jup va qisqartirilg'an otlar yasaladi.

Ikki va undan ortiq so'zlarning ma'no va grammatik jihatdan o'zaro bir biriga qo'shilishi natijasida yasalgan otlar qo'shma otlar deyiladi. Qo'shma ot tarkibidagi otlar ko'pincha oldindagisi keyingisini tushuntirib keladi: *suwjilan, tu'yemoyin* kabi.

Sostavli otlar eng kamida 3 va undan ortiq so'z bilan yasalib, ular muassasa, tashkilot, mamlakat nomlarini bildirib keladi: *Qaraqalpaq Avtonomiyali Sovet Sotsialistik respublikasi, O'zbekistan Ilimlar Akademiyasining Qaraqalpaqstan filiali* kabi.

Otlarni yasashda bir xil grammatik formada kelgan 2 so'zni o'zaro teng bir nizom ostida birlashtirish usuli bilan paydo bo'lgan ot – juft ot deb yuritiladi: *ata-ana, nan-pan, shay-suw* kabi. Juft otlar ma'no jihatdan umumlashtiruvchi, jamlovchi kabi ma'nolarni bildirib keladi. Juft otlar orasidagi komponentlar orasidagi tenglikni – (defis) belgisi orqali anglashiladi. Juft otlar odatda, bir so'z turkumiga oid bir grammatik formadagi so'zlar hisoblanadi.

Qo'shma so'zlarning qisqarishidan ham yangi so'z paydo bo'ladi. Bunday so'zlarni **abbreviatsiya** deb ataydi. Qo'shma so'zlarning qisqarishi faqat ot so'z turkumiga xos.

² Hamroyev M. va boshqalar. Ona tili. – Toshkent, 2007. - B. 97.

³ Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965. – B. 42.

⁴ Patullaeva G. Qaraqalpaq tilinde so'z jasaliw. Toshkent, 2020. –B.61



Qisqarga soʻzlar - qoʻshma soʻzni qisqartib, ularni birlashtirish yoʻli orqali yasaladi. Qisqargan soʻzlarni yasashda sostavli atliqlar – tarkibli otlar asosiy manba boʻlib hisoblanadi⁵: *Birlesken Milletler Shoʻlkemi – BMSH, Qoraqalpaqstan Avtonomiyali Sovet Sotsialistik respublikasi – QQASSR* kabi.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek tilida otlar asosan 3 xil: morfologik, sintaktik va abbrevatsiya usulida yasaladi. Rus tilida esa faqat 2 xil: morfologik va sintaktik usulda yasaladi: Qoraqalpoq tilida 2 xil: morfologik va sintaksislik usul bilan otlar yasaladi. Qoraqalpoq tilida sintaksislik usul bilan ot yasashni oʻzi 4 guruhga boʻlingan. Bular: *qospa atliqlar, sostavli atliqlar, jup atliqlar va qisqargʻan atliqlar*. Aslida oʻzbek tilidagi abbrevatsiya usuli qoraqalpoq tilidagi qisqargʻan otlarga toʻgʻri keladi. Faqat oʻzbek tilida ot yasashning alohida usuli sifatida, qoraqalpoq tilida esa sintaksislik usulining ichiga kiritilgan. Har 3 tilda otlarni sintaktik usulda yasash bir-biridan uncha farq qilmaydi. Bu esa oʻz navbatida, tillarni qiyoslab oʻrganishda qiyinchilik tugʻdirmaydi.

References:

1. Azizov O va boshqalar Oʻzbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent.1965.
2. Hamroyev M va boshqalar. Ona tili . – Toshkent. 2007.
3. Nasirov D. va boshqalar. Haʼzirgi qoraqalpaq tili Noʻkis. 1981.
4. Patullaeva G. Qoraqalpaq tilinde soʻz jasaliw. Toshkent. 2020

⁵ Nasirov D. va boshqalar. Haʼzirgi qoraqalpaq tili Noʻkis.1981. – B. 73.